Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.411.21
FILOLOGIYA

ARAB TILIDAN O'ZLASHGAN "VAQT" LEKSEMALARINING SEMANTIK MAYDON XUSUSIYATI

Qudratillo Xamidillo o'g'li Bakirov*
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
✉ tillo.bakirov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada vaqt ma'noli sifat turkumidagi arabizmlarning o'zbek tiliga o'zlashish xususiyatlari tahlil ostiga olinadi va leksemalarning semantik imkoniyatlari ochiqlab beriladi.

Kalit so'zlar

vaqt, konsept, arabizm, so'z o'zlashisi, turkum o'zgarishi, semantik maydon.

DOI: 10.5281/zenodo.21743027

KIRISH

O'zbek tilimiz boy leksik bazaga ega bo'lishiga qaramay, tilimizda vaqt maydonini nomlovchi asl turkiy leksema faol emas va muqobil sifatida arabcha va forscha vaqt, on, payt, fursat, muddat va boshqa o'zlashmalardan foydalanishimiz ko'p o'rinda ko'zga tashlanadi. Bu esa tilimizda arabizmlarning o'rni salmoqli ekanligini ko'rsatadi. "Payt" ma'noli arabizmlarni ravish, sifat, fe'l, ot ko'rinishida o'zbek tili leksikumida muhim jihatlarni ko'rib chiqsak, ular orasida zamon sifatlarining o'rni ham beqiyosligini ko'ramiz. Quyida, avvalo, arab tilida nisbiy sifat yasovchi -iy affiksi, turkiycha zamonga xoslikni boildiruvchi sifat yasovchi -gi/-ki affiksi bilan proparsionalligini ko'rib o'tamiz.

Tilimizda sifat so'z turkumini o'rganish jarayonida ularning ma'noviy guruhlarini leksik xususiyatlaridan kelib chiqib guruhlashtiramiz. Bu o'rinda har bir ma'no turining o'ziga xos xususiyatlari mavjud: -gi (ki) affikslari zamon leksemasini saqlagan deyarli barcha otlar va ravishlardan zamon sifatlarini hosil qiladi [5, B. 237-238]. Kuzgi (ot+gi), avvalgi (ravish+gi) sifat yasalmoqda. Ba'zan bu turdagi sifatlar -iy qo'shimchasi orqali ham yasaladi. Bu esa tilimizda arabizmlarning affikslari bilan qabul qilinishiga bog'liq masaladir. doimiy, oniy, abadiy va shu kabi so'zlar qo'shimchalari bilan qabul qilingan. "-iy" qo'shimchasi arab tilida faol nisbiy sifat yasovchi qo'shimchadir. Ushbu affiks tilimizda zamonga xoslik, predmentga xoslik manolarini anglatsa, arab tilida sifatning turli manoviy guruhlarini hosil qiladi. Masalan: (ma'naviyyun) manoli (belgiga ega ekanlik), (qurabiyyun) qishloqi (joyga xoslik), (sayfiyyun) yozgi (zamonga xoslik) ma'nolarini ifodalaydi. Bu guruhlarga xos ko'plab arabizmlar tilimizga kirib kelgan.

Abadiy o'zbek tilida mangu so'zi bilan sinonim sifatida faol bu so'z arabchada 'abadiyy(un) shakliga ega. O'zbek tilida fathali "a" tovushiga almashtirilib, so'z oxiridagi "y" tovushlaridan biri tashlab yuborilgan.: 'abadiyy – abadiy . Bu so'z aslida "Yovvoyi bo'ldi" ma'nosini anglatuvchi "abada" fe'lining "Payoni yo'q bo'ldi" ko'chma ma'nosidan hosil bo'lgan. "-iyy" nisbiy sifat yasovchi qo'shimchadan yasalgan [4, B. 8]. Ushbu so'zda tarjima qilish jarayonida -iy qoshimchasi o'zbek tilida zamon leksemasiga ega bo'lgan so'zlarga qo'shiladigan –gi (ki) affiksiga sinonimlik hosil qilishi kerak. Ammo "abad" so'zi tilimizda faol o'zlashmagan, u qo'shimcha bilan birga zamon sifatini ifodalaydi va u tub sifatdir. avvalgi so'zi haqida biz yuqoridagidek xulosa chiqara olmaymiz. Bu so'z asosi arab tilida (birinchi) tartib sonni ifoda etadi. O'zbek tiliga o'zlashish

jarayonida uning ma’no ko‘chimi, ya’ni semalaridan birining yuqori planga kelishi tufayli, ravish leksemasi yuzaga chiqadi va bu leksema harakatning paytini ifodalaydi. Boshqa payt ravishlari singari –gi affiksini olib, zamon sifatlarini hosil qiladi. Arab tilida odatda tartib sonlar o‘zbek tilidagi kabi hech qanday vositalarsiz ham sifatlarga yaqin turadi va sifat yasovchi affiks olmaydi. Shuning uchun ham –iy qo‘shimchasi o‘zbek tilida ham qo‘shilmaydi. doimiy – bu arabcha daimiyy(un) shakliga ega bu so‘zda ham y tovushidan biri tushirililib o‘zlashgan. Daimiyy – doimiy. Bu so‘z “dama” fe’lidan hosil qilingan aniq nisbat sifatdoshiga –iy nisbiy sifat hosil qiluvchi qo‘shimcha qo‘shilgan. Doim so‘zi bu affiksdan tashqari turkiy tildagi -gi qo‘shimchasini ham oladi: doimiy ahvol –doimgi ahvol. Bu o‘rinda arab tilidagi asosga qo‘shilgan ikki til affiksi affiksal sinonimiyani hosil qiladi. Mavsumiy – bu so‘z arabcha mavsum so‘zidan –iyy qo‘shimchasi bilan yasalgan nisbiy sifatdir. “Ma’lum mavsumda bajariladigan” kabi ma’noni anglatgan. Bu so‘z aslida mavsimiy bo‘lishi zarur edi. Ushbu so‘zda ham –iy affiksini –gi hamda –li qo‘shimchasi bilan o‘zgartiribtirib qo‘llashimiz mumkin, ularning semalari bir-biridan deyarli farqlanmaydi. “mavsumiy o‘zgarish” - “bu mavsumgi hosil”- “mavsumli ish” [4, B. 345]. Bu holatni esa asos leksemaning faol o‘zlashganligi bilan baholashimiz mumkin. Muddatli – bu so‘zning asosi muddat(un) shaklida bo‘lib madda fe’lining “Voqea bo‘lish paytini cho‘zdi” manoli fe’li masdaridir. Muddat so‘zi ma’nosi “Davom etish chegaralangan vaqt “di. Bu so‘zga -li o‘zbek tilidagi sifat yasovchi qo‘shilgan. Muddat so‘zi tilimizga “qisqa vaqt” ma’nosini ifodalagan leksema sifatida qo‘shilgan ushbu leksema zamonga xoslikdan tashqari belgiga ega ekanlik ma’nosini ham ifodalaydi, shuning uchun ega ekanlik ma’nosini beruvchi –li qoshimchasi ustunroq kelgan va bu hol antonimlikda ham ko‘zga tashlanadi: Muddatsiz passport – muddatli xizmat sifatida, vaqtli –vaqtsiz kabi. Lekin yuqoridagi doimiy, abadiy, qadimiy so‘zlarida faqat zamonga xoslik ma’nosi ifodalanganligi tufayli ularga –li affiksi qo‘shila olmaydi. Qadimiy – bu so‘z arabcha “qadimun” shakliga ega . “Qadama “ fe’lining “oldinda bordi” ma’nosi bilan yasalgan asliy sifat bo‘lgan “uzoq o‘tmish “ ma’nosini anglatgan. Qadimiy so‘zidagi yasovchi affiks “–iy” ni “-gi” bilan sinonim sifatida almashtirishimiz mumkin. Arab tilida ushbu so‘z asliy sifat bo‘lib, o‘zbek tiliga “qadim” so‘zi ot sifatida qabul qilingan. Ushbu otda zamon belgisi ham ifodalana olgan: “Qadim zamonda”, so‘ngra unga -gi affiksi qo‘shilib sifat yasalgan.

XULOSA

Tilimizga arab tilidan o‘zlashgan zamonni ifodalovchi sifatlar, asosan, asos leksemasi bilan qabul qilingan. Tilimizda turg‘unlashish jarayonida ba’zilariga arabcha, ba’zilariga turkiycha sifat yasovchi affiks qo‘shilgan. Ba’zan bu qo‘shimchalarni omonim sifatida almashtirish mumkin. “-iy” qo‘shimchasi asosan arabizmlarga qo‘shiladi va kamdan kam hollarda turkiy so‘zlaga predmentga xoslik ma’nosini anglatganda qo‘shiladi, bunday hosilalar qo‘l bilan sanoqli: devoriy kabi. Ba’zi hollarda –iy qo‘shimchasi asosga qo‘shilib o‘zlashganini ko‘ramiz: Siyosiy,moddiy,milodiy va boshqalar. Ushbu so‘zlar arab tilida Grammatik jihatdan asos va qo‘shimchaga ajralsa-da, bizning tilda buning uchun leksik asos mavjud emas. Shunday qilib tilimizga o‘zlashgan ko‘plab arabizmlar o‘zbek tilining boyishi va undagi ma’nolarning serqirraligiga o‘zining beqiyos ta’sirini ko‘rsatgan. Shuningdek, tilimizning leksik, morfemik, morfologik, stilistik qatlamlarini boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахтамова Х. Пайт муносабатини ифодаловчи кўмакчи формалар// Ўзбек тили ва адабиёти. – 1988. –№1– Б. 47- 51.
2. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007.
3. Мадалиев Б. Ҳозирги замон ўзбек тилида қўшма сўзлар // Қўқон Давлат педагогика институти илмий ишлар тўплами. – Фарғона. 1958, – Б. 6-7.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. – Тошкент, 2000.
5. Содиков К. Туркий тил тарихи. —Тошкент, 2009.
6. Ҳакимова М. Ўзбек тилида лексик-семантик вақт тизими//Тил ва адабиёт таълими. – 2003. – №3. – Б. 36-40.